

IJTIMOY NUTQIY MADANIYAT HAMDA ADABIY TIL ME'YORLARI MASALALARI HAQIDA

Shirinqulova Mohinur Rustam qizi

Turon universiteti 1-kurs talabasi E-mail: mohinurshirinqulova56@gmail.com

M. Xamrayeva

Ilmiy rahbar: PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada, nutq madaniyati ijtimoiy hodisa ekani uning jamiyat, fan-texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan uzviy bog'liqligi hamda yillar davomida sayqallanib, taraqqiy etib borishi haqida so'z boradi. Shuningdek, nutq madaniyati, uning uslublari va turlari haqida tushuntirib o'tilgan bo'lib, nutqning jamiyatdagi ahamiyati bilan bir qatorda nutq haqidagi asosiy tushunchalar jumladan, nutqiy me'zonlar asosida lisoniy o'zgarishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: nutq, nutq rivoji, nutq faoliyati, og'zaki va yozma nutq, nutq madaniyati, adabiy me'yor.

Abstract: The following article provides information about speech culture, which is a social phenomenon and is inextricably linked with the development of society, science and technology, cultural as well as literary life and its polish and development over the years. The author also explains the culture of speech, its styles and types, the importance of speech in society as well as the main concepts of speech, including linguistic changes based on speech criteria.

Key words: speech, speech development, speech activity, oral and written speech, speech culture, literary norm.

KIRISH

Ma'lumki, nutq faoliyati kundalik hayotimizning tarkibiy qismi sanaladi. Nutq madaniyati kishilarining kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqador bo'lib, adabiy tilning o'zi nutq madaniyatini tashkil eta olmaydi. Adabiy tildan uning madaniylashgan vositalaridan nutqiy faoliyatda foydalanilganda adabiy til nutq madaniyati vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy ta'lim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, gazeta va jurnallar chop ettiriladi. Radio va televideniye eshittirishlarida ushbu til me'yorlariga amal qilinadi. "Meni kutgin", "Bola tilidan", "Muloqot" kabi ko'rsatuvlar aynan og'zaki nutqning namunasidir. Bu ko'rsatuvni tomosha qilgan xalq psixologik va fiziologik jihatdan nutqini o'zgartiradi.

Nutqiy muloqotning boshlanishi barcha millat va davlatlarda salomlashish hisoblanadi. Salomlashish – milliy, ma'naviy tamoyillarga asoslanadigan xatti-harakat shakli, nutq odobi unsuri. Har qanday nutqiy muloqot salomlashish jarayoni bilan boshlanadi. Bunday so'zlarga: assalomu alaykum – vaalaykum assalom, salom, yaxshimisiz – xudoga shukur, hormang – bor bo'ling, xush kelibsiz – xushvaqt bo'ling kabi til birliklari kiradi. Salomlashish bosqichi verbal va noverbal shakllarda

ifodalanadi. Masalan, o'zbeklarda o'ng qo'lni ko'ksiga qo'yib salom beriladi. Salom beradigan inson yoshi va mavqei ulug' bo'lsa, boshni ozgina oldinga egib, yengil ta'zim beriladi. Ayollar salomlashishi erkaklardan farq qiladi. Erkaklar suhbatdoshga o'ng qo'llarini cho'zib va maxkam qisib salomlashsa, ayollar nazokat bilan qo'l tirsaklarini ushlagan holda salomlashadilar. Yoshi, hurmati, mavqei yuqori va yaqin insonlar bilan esa ikki qo'llari bilan quchoq ochib ko'rishadilar. Masalan, Assalomu alaykum... Sog'milar, shaxzodam, – dedi Gulshan qo'lini ko'krigiga qo'yib, bolag'a bukilingirag'an holatda. Shaxzoda javobsiz kulimsirab, Gulshanga biroz qarab turdida, ichkariga kirib ketdi [3; 413].

Nutqiy me'yor haqida olimlar turlicha fikrlarini bayon etganlar. Jumladan, S.I.Ojegovning fikricha: "Nutqiy me'yor – bu tilning xalq tomonidan o'zaro yaxshi tushunish zarurati tufayli yaratilgan amaliy jihatdir. Bu zarurat tilning yagona shakliga erishish yo'lida odamlarga biron variantni ma'qul ko'rish, boshqasidan vos kechish istagini tug'diradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yo'lidagi intilishi bilan birgalikda til me'yori milliy adabiy tilda yuqori darajaga ko'tarilib, mustahkamlanib boradi" deb yozadi [4;137].

Adabiy nutq, uning yozma va og'zaki adabiy shakli me'yorlari bu tilda so'zlovchilarning shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat bo'lgan umumiy me'yor sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy nutq madaniyatini egallashda tilga e'tibor berish, unga chinakam hurmat va muhabbat ulashish muhim ro'l o'ynaydi. Adabiy nutq me'yorlarini shunchaki qiziqish va u bilan nomigagina shug'ullanish bilan egallab bo'lmaydi. Buning uchun shaxsning saviyasi yuksalishi, bilimi o'sishi ham talab etiladi. Shuncha ko'ra ,adabiy nutq madaniyati nutqiy ko'nikma, hamda nutqiy malaka natijasidir. Nutq malakasi madaniyati egallangan bilim, o'rganilgan qoidalar emas, balki kishining ularga o'z faoliyatida amal qilishda qo'llashga erisha olgan ko'nikmasidir. Ko'rinadiki, nutq madaniyati aniq nutqiy faoliyat, aniq nutqiy amaldir. Nutq madaniyati va nutqiy faoliyat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Madaniy nutq madaniy nutqiy faoliyatining mahsuli sanaladi. Shunday qilib nutqiy madaniyatni egallash madaniy nutq ko'nikmasini hosil qilish demakdir. Jamiyat a'zolarining bilim va madaniy saviyasi o'sgani sari kishilarning nutqi ham jilolanib, sayqallashib, adabiy til qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boraveradi. Masalan, ming boshi, yuz boshi, qozikalon, supa, xalqa, dodho, so'ri go'ja, so'zlari qadimgi nutqiy faoliyati mahsuli sanalgan. Bugungi kunda kelib, ular o'rnini wi-fi, fast-food, doctor, internet, web-site, plaza, payme, hot-dog, play station, IT park, kabi so'zlariga bo'shatib bergan. Nafaqat ingliz tilidan balki boshqa tillardan ham bir qator so'zlar o'zbek tiliga kirib kelgan. Misol uchun marshrutka so'zi fransuzcha morsche yurmoq ruy yo'l ma'nosini anglatadi, unga rus tilidagi -ka kichraytirish erkalash qo'shimchasini qo'shib o'zimizning nutqimizga o'zlashtirib olganmiz. Arab tilidan qalam, ilm, muallim, olima, maktab, kitob, limon so'zlarini, fors-tojik tilidan mardikor, dasturxon, obdasta, obi-non kabi so'zlarni nemis tilidan butterbrot, kindergarden, swarts soat kabi so'zlarni, rus tilidan ручка, сумка, шланк, самолёт,

банка, водопровод, подоконник, очки kabi so'zlarni o'z tilimizga o'zlashtirib olganmiz. Bundan tashqari meditsinaga doir bo'lgan antiseptik, sitimigalavirus, anesteziolog, otolarintolog, aspirin kabi so'zlar lotin tilidan kirib kelgan bo'lishiga qaramay, o'zbek tilidagi muqobili mavjud emasligi tufayli o'zbek tili nutqida faol qo'llanadi.

Ta'kidlash joizki, adabiy tilning o'lib, xunuklashgani hech kimga sir emas. Nutq madaniyatining rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning o'rni beqiyos. Og'zaki va yozma nutq madaniyatining o'ziga xos qoidalari va me'yorlari bor. Ayniqsa, yozma nutq madaniyati uzoq asrlardan beri taraqqiy etib kelmoqda. Masalan, XXI asrdayoq o'zbek yozma nutqining me'yorlari bo'lgan. Buyuk mutaffakkir shoir A.Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o'z davri yozma nutq madaniyati, nutq odobi rivojiga mislsiz hissa qo'shgan. Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida Alisher Navoiy an'analari davom ettirilgan. Misol uchun Ogahiy g'azallari o'zining ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan yetukligi bilan adabiyot bo'stonida o'zining alohida o'rniga ega. Xususan mazkur g'azalni o'qigan kitobxon ham, bir tomondan oshiq qalbidagi tuyg'ularning sof va samimiyligidan ilhomlansa, boshqa tomondan, g'azqlning hal va o'ynoqi ohangidan zavq tuyadi.

Bundan tashqari asrlar davomida nutqning Muhammad Rizo Ogahiy "Sallamno" g'azalida;

Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningg'a sallamno
To'kar har damda ming qon tiyig'i mujgoningg'a sallamno
Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,
Durafshon nukta birla la'li xandoningg'a sallamno.
Asir aylab kamandig'a parishon ko'nglum etdi jam,
Musalsal halqayi zulfi parishoningg'a sallamno.
Yuzingdin zarracha partav yetishkach tiyra kulbamg'a,
Yoritdi hajr shomin mehri raxshoningg'a Sallamno [1; 1].

Asrlar davomida nutqning qanday tarzda o'zgargani yaqqol ko'rinib turibdi. Bu so'zlarni tushunish uchun yosh kitobxon avvalo, sizlarni tarixini o'rganib chiqish lozim. O'tmish ajdodlarimizning og'zaki nutq madaniyati qanday qanday bo'lganligi haqida ma'lumotlar yetib kelmagan. O'tgan asrning 20 yillaridan so'ng o'zbek tilining nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me'yorlariga asoslanadi. Bu me'yorlarni shakllantirish uchun olimlar O. Hoshimov, T.N.Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, O. Usmon va adib -shoirlar A.Qodiriy, Cho'lpon, munosib hissasa qo'shdilar. Turk va Fors tilidagi asarlar Muhammad Yusufni "Vatanim" she'ri kitobxonni o'ziga jalb qilgan.

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim.
O'zim xoqon O'zim sulton
Sen taxti Sulaymonim.

Yolg'izim, yagonam deymi
Toppingan koshonam deymi,
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan vatanim...[5; 29]

Bundan tashqari nutq madaniyati ta'limoti sifatida qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsada unga qadar Misrda, Ossuriyada, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo'lgan. U paytda davlat arboblarning obro'-e'tiborlarini va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notqlik san'atini qay darajada egallaganliklariga bog'liq bo'lgan. Notqlik san'ati sarkardalik mahorati bilan barobar qadrlangan va bu ikki san'atning mohir egalarigina yuqori lavozimlarga saylanishgan.

Xalqimiz orasida ming yillar davomida yashab kelayotgan "Yaxshi so'z jon og'izi", Yomon so'z bosh qozig'i, "Bug'doy noning bo'lmasa ham , bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neniki yemak hayvonning ishi, har neni demak nodonni ishi", kabi maqol va hikmatlarning yashab kelayotgani o'tmishda ham o'g'zaki nutq madaniyatiga katta e'tibor berilganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda: barcha shaxslar o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetik, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bo'lsada xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR:

1. Ogahiy M.R. Ogahiy g'azallari. Tafakkur 2024. – 1-b.
2. Omon.A.J, Turdiyev, Sh.I.Abdurayimova. O'zbek nutq madaniyati uslublari 2019-y. – 29 b.
3. Qosimova N. Nutqiy muloqotning sotsiologiyistik xususiyatlari. Scienceweb 2023. – 413 b.
4. Raupova L. Nutq madaniyati, darslik, Toshkent:"Innovatsiya ziyo" , 2019-y 137-b.
5. <https://tafakkur.net/vatanim/muhammad-yusuf.uz> 2017 y .